

**FUNDUK DARAXTI BIOTSENOZIDA LEPIDOPTERA TURKUMINING
BIOEKOLOGIYASI VA TUR–TARKIBI**

Xaydarova Shaxnoza Abdunazarovna TDAU assistenti.

<https://orcid.org/0000-0001-5092-5069>

UDK 634.54+632.937

Annotatsiya: Mazkur maqolada funduk daraxtida uchrovchi Lepidoptera turkumiga mansub hasharotlar tur tarkibi haqida malumotlar keltirilgan. Mamlakatimizda Lepidoptera turkumiga kiruvchi tunlamlar, bargo'rovchilar, kuyalar va parvonalar oilasi vakillari keng tarqalgan bo'lib, funduk daraxtlariga jiddiy zarar yetkazadi.

Kalit soʻzlar: Funduk daraxti, Lepidoptera, bioekologiya, tur–tarkibi.

Аннотация: В данной статье представлена информация о видовом составе насекомых отряда Lepidoptera, встречающихся на дереве фундука. В нашей стране широко распространены представители семейства совок, листоверток, моли и мотыльков отряда Lepidoptera, которые наносят серьезный ущерб деревьям фундука.

Ключевые слова: Фундуковой дерево, биоэкология, видовой состав.

Abstract: This article presents information on the species composition of Lepidoptera order insects found in the funduck tree. In our country, representatives of the broomrape family, leafhoppers, moths, and butterflies of the Lepidoptera order are widespread, causing serious damage to the funduck trees..

Keywords: (Corylus avellana L.) tree, bioecology, species composition.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda oʻrmonchilik va bogʻdorchilik sohalari izchil rivojlanib, yer maydoni yil sayin oshib bormoqda. Mamlakatimizda umumiy oʻrmon yerlari hajmi 11,7 million hektarni tashkil etib, ularda 6 ta markaziy davlat

oʻrmon xoʻjaligi, 2 ta milliy tabiiy bogʻ, 1 ta oʻrmon–biosfera rezervatsiyasi, shuningdek, tajriba–ilmiy stansiyalar va sanoat korxonalari faoliyat olib bormoqda. Ushbu hududlarda yongʻoq, mevdor, manzarali va qurilish uchun qimmatli daraxt turlari alohida ahamiyat kasb etadi. Oʻrmon xoʻjaliklari barpo etilishi atrof–muhitning barqarorligini taʼminlash, bioxilma–xillikni saqlash, ekoturizm salohiyatini rivojlantirish va qishloq xoʻjaligi hamda sanoat uchun zarur homashyo yetishtirish kabi vazifalarni bajaradi. “Yashil makon” loyihasi doirasida ekotizimni saqlash va yashil hududlarni kengaytirish davlat darajasida qoʻllab–quvvatlanmoqda. Mazkur dastur orqali har yili 200 milliondan ortiq koʻchat ekilib, shahar va tumanlarda yashil hududlar ulushi 8% dan 30% gacha yetkazilishi rejalashtirilgan. Yangi oʻrmonzorlarni barpo etishda ekin turlarini tanlash bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu ekinlarning asosiy zararkunandalari Lepidoptera turkumiga mansub hasharotlardir. Agar ularni nazorat qilish tadbirlari amalga oshirilmasa, yangi barpo etilayotgan bogʻlarning 40–45% gacha zarar koʻrishi mumkin. Mamlakatimizda Lepidoptera turkumining tunlamlar, bargoʻrovchilar, kuyalar va parvonalar oilasi vakillari keng tarqalgan boʻlib, funduk daraxtlariga jiddiy zarar yetkazadi. Jumladan, Eribidae oilasi vakillari – toq ipak qurti (*Lymantria dispar* L.) eng zararli turlardan biri sifatida qayd etilgan. Ushbu hasharot faolligi natijasida daraxt barglarida teshiklar, yeyilgan qismlar va erta sargʻayib tushish belgilari kuzatiladi. Agar unga qarshi kurash tadbirlari olib borilmasa, mavsum davomida hosil 30–35% gacha yoʻqotilishi mumkin.

Toshkent viloyati Boʻstonliq tumanidagi Burchmulla oʻrmon xoʻjaligi va Ugam–Chotqol Davlat milliy tabiat bogʻlari hududida 2022–2024 yillar davomida olib borilgan entomologik kuzatuvlar natijasida Lepidoptera turkumiga mansub Eribidae, Tortricidae, Plutellidae va boshqa kapalaklar oilasi vakillaridan jami 6 ta asosiy zararli hasharot turi aniqlangan. Kuzatuvlar jarayonida toʻplangan namunalarda asosida har bir turning uchrash darajasi va daraxtlarga yetkazgan zarari foiz hisobida baholandi. Natijalarga koʻra, toq ipak qurti eng yuqori uchrash va zararlash darajasi (32,1%) bilan ajralib turgan. Shuningdek, Tortricidae oilasi vakillari ham ekologik muhim zararli turlar sifatida qayd etildi (1-Jadval).

Jadval .1

Funduk biotsenozida uchraydigan *Lepidoptera* turkumining asosiy vakillarining uchrash va zarar yetkazish darajasi

(Toshkent viloyati, Burchmulla o'rmon xo'jaligi, 2022–2024 yillar).

№	Lotincha nomi	O'zbekcha nomi	Oilasi	Zararlash darajasi	Uchrash foizi (%)	Biologik tavsifi
1	<i>Lymantria dispar</i> L.	Toq ipak qurti	<i>Eribidae</i>	+++	32,1	Barglarni yig'ma holda yeydi, 2 avlod
2	<i>Erannis defoliaria</i> F.	Funduk meva xo'ri	<i>Tortricidae</i>	+++	14,6	Qishda qurt holatida, yozda barg yeydi
3	<i>Pandemis cyondrellana</i> H.S.	Yashil bargxo'r	<i>Tortricidae</i>	++	12,7	Barglarni o'raydi, g'uncha va mevani zararlaydi
4	<i>Coleophora hemerobiola</i> Fil.	G'ilofli kuya	<i>Plutellidae</i>	++	15,7	Barg to'qimasida kanal ochib yeydi
5	<i>Cemiostoma scitella</i> Zell.	Girdak kuya	<i>Plutellidae</i>	+	4,6	Barg to'qimasida mayda teshikchalar hosil qiladi
6	<i>Zeuzera pyrina</i> L.	Arvoh (o'yuvchi) kapalak	<i>Cossidae</i>	++	11,3	Novda va shoxlarda teshik ochib o'tadi

Izoh: Zararlash darajasi: (+++) ko'p, (++) o'rtacha, (+) kam.

Tadqiqotlar asosida funduk biotsenozida *Lepidoptera* turkumining biologik xususiyatlari, ularning populyatsiya dinamikasi va tabiiy dushmanlari o'rganilib, zararkunandalarga qarshi ilg'or kurash usullarini ishlab chiqish imkoniyati yaratildi. Bu esa ekologik toza qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishga xizmat qiladi.

Ushbu turning faolligi davomida daraxt barglarida chegaralangan teshiklar, ichiga kirib yeyilgan qismlar va barglarning sarg'ayib erta to'kilish simptomlari

kuzatildi. Shuningdek, *Tortricidae* oilasi vakillari ham ekologik muhim zararli turlar sifatida qayd etildi. *Eribidae* oilasi vakili – toq ipak qurti (*Lymantria dispar* L.) yilning aprel–iyun oylarida faollashadi. Bir mavsumda ikki avlod beradi va har bir avlod 20–30 kun davomida barglarni yig‘ma holda yeyadi. Natijada hosil yo‘qotishi 30–40% gacha yetishi mumkin. *Tortricidae* oilasi vakillari – *Erannis defoliaria* va *Pandemis cyondrellana* bir mavsumda 1–2 avlod beradi va asosan barg, meva, novda va g‘unchalarni zararlaydi. Bu daraxtning keyingi hosilga kirish imkoniyatini kamaytiradi. *Plutellidae* oilasi vakillari – *Coleophora hemerobiola* va *Cemiostoma scitella* barg to‘qimasini kanalsimon o‘yib yeyadi, bu esa fotosintez jarayoniga jiddiy ta’sir qiladi.

Cossidae oilasi vakili – *Zeuzera pyrina* yosh novda va shoxlarga kirib, suv va ozuqa aylanish tizimiga zarar yetkazadi. Shu bois, bu tur ekologik xavfli zararli turlar qatoriga kiradi.

Funduk mevaxo‘ri (*Erannis defoliaria* F.) funduk bog‘larining asosiy zararkunandalaridan yana biri – funduk mevaxo‘ri hisoblanadi. Bu zararkunanda mavsum davomida 3–4 avlod berib ko‘payadi va funduk bog‘lariga sezilarli zarar yetkazadi. Funduk mevaxo‘ri funduk va boshqa yong‘oqdosh daraxtlarning eng xavfli zararkunandasi hisoblanadi

Xulosa. Lepidoptera turkumining bioekologiyasi hamda ularning populyatsiyasi, tur-tarkibi va tabiiy kushandalari o‘rganilib, zararkunandalarga qarshi o‘z vaqtida ilg‘or qarshi kurash usullarini ishlab chiqish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shukurov X., Xo'jaev Sh.T. Yashil olma shirasining xususiyatlari va zarari. // Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini Ilmiy amaliy jurnal 2017. – № 3 (3) – B. 25–26.
2. Shukurov X.M., Abdurahmonova J., Nazarova M., Yong'oqning zararli gall (yoki junli) – *Aceria erineae* va bo'rtma– *Aceria tristriata* kanalarining bioekologik xususiyatlari. – Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini 2021. – № 4. – B. 37–40.
3. Xo'jayev Sh.T. O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilishning zamonaviy usul va vositalari. Toshkent: "Navro'z", 2015. 552–b.
4. Yaxontov V.V. O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi ekinlari va maxsulotlarini zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari. – Toshkent–1962. – B. 40–50.
5. Абдуллаев Т. Ўзбекистон ёнғоқ маҳсулотлари // Тошкент.-2018.- 160 б.